



## ESXILNING “ZANJIRBAND PROMETHEY” TRAGEDIYASIDA ERK MASALASI

**Sherqo‘ziyeva Muhayyo**

*Farg‘ona davlat universiteti 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yunon fojia-navisi, “tragediyaning otasi” hisoblangan Esxilning qadimgi yunon afsonalari asosida yaratilgan “Zanjirband Prometey” tragediyasida inson erk - ozodligi, adolat va zulmga qarshi kurash masalasi tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar :** Tragediya, afsona, antik dunyo, ma‘bud, bashorat, taqdir

**Abstract :** This article analyzes the issues of human freedom, justice, and the struggle against oppression in the tragedy “Prometheus Bound” by the Greek tragedian Aeschylus, who is considered the “father of tragedy,” and which was created based on ancient Greek myths.

**Keywords:** Tragedy, myth, ancient world, deity, prophecy, fate

Insoniyat tarixida taqdir va erk masalasi eng muhim falsafiy va ijtimoiy muammolardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, antik adabiyotda insonning ozodlikka intilishi, adolat uchun kurashi va zulmga qarshi isyoni badiiy asarlarning markaziy mavzusiga aylangan. Yunon tragediyanavisi Esxilning “Zanjirband Prometey” tragediyasida ham aynan inson erk-ozodligi, taqdirga munosabat hamda kuch va adolat o‘rtasidagi ziddiyat chuqur falsafiy mazmunda tasvirlangan. Bu asarda Prometey obrazi orqali insoniyat manfaatini hamma narsadan ustun qo‘ygan jasorat va erkinlik g‘oyasi ulug‘lanadi.

Esxil taxminan miloddan avvalgi 525-yili Elevsin shahrida yirik zamindor oilasida dunyoga keldi. Qadimgi adabiyotshunoslarning zikr etishlaricha, u 90 ga yaqin tragediya yozgan bo‘lib, bizgacha faqat 7 tasigina yetib kelgan (“Iltijogo‘ylar”, “Eroniyalar”, “Zanjirband Prometey”, “Fi vaning yetti dushmani”, “Oresteya” trilogiyasini tashkil qiluvchi “Agamemnon”, “Xoeforlar”, “Evmenidalar”). [1.46,47]

Esxilning eng mashhur tragediyasi “Zanjirband Prometey” asari Prometeyning Zevs buyrug‘i bilan Kavkaz tog‘iga zanjirband qilinishi bilan boshlanadi. Prometey insonlarga yordam bergani, ularga olov hadya qilgani va ilm-hunar o‘rgatgani uchun ma‘budlar podshosi Zevsning g‘azabiga uchraydi. Shu sababli u og‘ir jazoga mahkum etiladi. Asar davomida Prometey o‘z qilmishidan pushaymon emasligini aytadi. U insonlar kelajagi uchun azob chekayotganini faxr bilan ta‘kidlaydi. Uning oldiga Okean, Okeanidlar va boshqa qahramonlar kelib, Zevsdan kechirim so‘rashni maslahat berishadi, lekin Prometey erk va adolat yo‘lidan qaytmaydi. Prometey Zevsning ham kelajakda hokimiyatdan ayrilishi mumkinligini bashorat qiladi, lekin bu sirni aytishdan bosh tortadi. Asar oxirida Zevsning g‘azabi yanada kuchayadi va Prometey yana ham qattiq azobga duchor etiladi, lekin u baribir o‘z irodasidan voz kechmaydi.

Ko'rib turganimizdek , bu tragediya Prometey obrazi orqali erk-ozodlik, matonat, adolat va zulmga qarshi kurash badiiy tasvirlangan .

Asarda insonparvarlik fazilatini yaqqol namunasi sifatida Prometeyning insonlarni yovvoyilikdan qutqarish, ularga hunar, yozuv va hisob-kitobni o'rgatish uchun o'zini qurbon qilishini keltiramiz . Uning ismi Prometey "bashoratchi" ma'nosini anglatadi.

Yunon adabiyotining eng nodir namunalarida , xususan, Homerning "Illiada" va "Odisseya" , Sofoklning "Shoh Edip" asarlarida bashorat motivi, tush motivi ( Homerning " Odisseya " asarida ham tushlar ramziy ma'noga ega. Masalan, Penelopa tushida burgut va g'ozlarni ko'radi. Bu tush Odisseyning qaytishini bildiruvchi ramz sifatida tahlil qilinadi. ) asosiy o'rin egallaydi . " Shoh Edip" tragediyasida ham Edipning o'z taqdiridan , bashorat qilingan kelajagidan xalos bo'lishi yo'lida qilingan harakatlar samarasiz yakunlanadi. Darhaqiqat , inson taqdiridan qochib qutula olmaydi va uni o'zgartira olmaydi. "Zanjirband Prometey" asarida ham aynan bashorat motivi , sir saqlash motivi yetakchilik qiladi. U Zevsning taxtdan qanday qulashini biladi, lekin bu sirni dushmaniga ochmaydi. Bir qaraganda, kitobxon bu voqealarda Prometeyni ham ayblamasdan qolmaydi. Negaki Prometey asl haqiqatni , Zevs haqidagi sirni , bashoratni aytishdan bosh tortadi, sarkashlik qiladi. Agarda Prometey Zevsga o'zi bilgan sirni oshkor qilganida, ehtimol u o'z azoblaridan qutulgan bo'lardi. Lekin bu holatda Prometeyning obrazi inson erk-ozodligi va matonat ramzi sifatidagi ahamiyatini yo'qotgan bo'lar edi. Chunki Prometeyning eng buyuk kuchi uning jismoniy qudratida emas, balki o'z e'tiqodiga sodiq qolganidadir. Agar u qo'rquv yoki manfaat tufayli sirni aytganida, u oddiy qahramonga aylanib qolardi. Asarda esa Prometeyning sukuti uning ma'naviy g'alabasi sifatida talqin qilinadi, chunki u zulm oldida bosh egmaydi. Bu orqali Esxil haqiqiy erk insonning ichki irodasi va e'tiqodida ekanligini ko'rsatadi. Esxil bu asar orqali o'z davrining muhim ijtimoiy va falsafiy masalalarini ko'targan:

1. Adolat va Istibdod to'qnashuvi: Zevs — yangi, shafqatsiz va qonunlarni tan olmaydigan diktator timsoli. Prometey esa ma'rifat va haqiqat himoyachisi.

2. Bilimning kuchi: Olov bu yerda shunchaki jismoniy olov emas, balki bilim, fan va madaniyat ramzidir.

3. Taqdir va Erkinlik: Hatto xudolar ham taqdirdan ustun emasligi asarda bot-bot takrorlanadi. [2. 4]

Asarda ma'budlar va insonlarni tahlil qilsak, ma'budlar:

1. Prometey - insonlarni himoya qiluvchi titan. U insonlarga olov va bilim bergani uchun Zevs tomonidan jazolanadi..

2. Zevs - Olimp ma'budlarining boshlig'i. Qattiqqo'l hukmron sifatida tasvirlanadi.

3. Gefest - Olov va temirchilik ma'budi. Zevs buyrug'i bilan Prometeyni zanjirlaydi, lekin ichida unga achinadi.

4. Germes - Zevsning elchisi. Prometeydan sirni bilib olish uchun keladi.

5. Io - Argos shohi Inahning qizi . Zevs tufayli azob chekayotgan qiz. Uning taqdiri ham Prometeynikiga o'xshash fojeali holatda tasvirlanadi.



Prometey titan bo'lishiga qaramasdan, insonlarga qo'lidan kelgancha yordam ko'rsatadi. Insonlarga olovdan nimalar tayyorlashni, uni qanday foydalanishni o'rgatadi. Uning insonlarga ko'rsatgan yaxshiliklari Zevsga yoqmaydi uni Kavkaz tog'iga zanjirband qiladi, toki Gerakl kelib ozod etmaguncha har kuni Zevsning qanotli iti - jeztumshuqli burgut jigarini cho'qib, qonini ichadi. Prometey Geraklning kelishiga chindan ishonadi. Shu sababli, Zevsga bashoratni aytishdan bosh tortadi. Prometeyning chekkan azoblariga hatto okeanlar dosh bera olishmaydi. Uning qaysarligi, erki uchun Zevsga bosh egmaganini Ernest Seton Tompsonning "Yovvoyi yo'rg'a" asariga qiyoslash mumkin. Negaki, bu asarda ham mustan ot insonlarga bo'yin egmasligi, erki uchun hayotidan voz kecha olishini uchratamiz. O'zbek adabiyotida ham erk asosiy masalalardan biri bo'lib kelgan. Bu masala deyarli barcha asarlarda turlicha namoyon bo'ladi. Misol uchun, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida ham Otabekning eski qarashlarga qarshi chiqib, erkin fikr uchun kurashganiga duch kelamiz.

Esxilning "Zanjirband Prometey" tragediyasi nafaqat antik davr uchun, balki bugungi zamon uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan asarlardan biridir. Prometey obrazi orqali insonning erkin fikrlashi, adolat uchun kurashi g'oyasi ilgari suriladi. Bugungi globallashuv davrida ham Prometey singari o'z fikrini himoya qila oladigan, haqiqatdan qo'rqmaydigan va jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan insonlarga ehtiyoj katta. Chunki haqiqiy taraqqiyot hamisha erkin fikr, ilm va jasorat orqali yuzaga keladi. Shu sababli Prometey obrazi bugungi yoshlar uchun ham ibrat bo'lib, ularni bilim olishga, mustaqil fikrlashga va o'z erki hamda adolat uchun kurashishga undaydi. Bir so'z bilan aytganda, Prometey obrazi bizga shuni anglatadiki, insonning haqiqiy buyukligi uning kuchida emas, balki haqiqat, adolat va erk yo'lida sobit turib, har qanday sinovlarga bardosh bera olishidadir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Jahon adabiyoti . Ulug'bek Hamdam, Abdug'ofir Qosimov .-Toshkent:" Akademik nashr " 2024 - 46-47 bet
2. Toshpo'latova Z. "Zanjirband Prometey" asari va uning yunon mifologiyasida tutgan o'rni . - Zamonaviy ilm-fan va ta'lim: muammo va yechimlar ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2025. – 26-dekabr. -4-5 bet
3. Antik adabiyot Qayumov, O.–Toshkent: O'qituvchi, 1975. (Ushbu darslikda Esxil ijodi va "Zanjirband Prometey" tragediyasining kompozitsion qurilishi batafsil yoritilgan)